

# Axens kompaniyasi PET chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini taklif qilmoqda

// 25.10.2024

<https://uzkemyosanoat.uz/oz/press/news/axens-kompaniyasi-pet-chiqindilarini-qayta-ishlash-texnologiyasini-taklif-qilmoqda>



Axens kompaniyasi PET chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini taklif qilmoqda

PET – polietilentereftalat – dunyoda eng keng tarqalgan plastmassa turi. Undan oziq-ovqat, farmatsevtika, mashinasozlik, elektrotexnika sanoatida keng foydalaniladi. Ushbu plastmass turidan kosmetika, tozalash vositalari, tibbiy mahsulotlar uchun idish va qadoqlar ishlab chiqariladi.

Neft va biomassalarni ekologik toza yoqilg'iga aylantirish bilan shug'ullanuvchi Axens guruhi barcha turdag'i polietilentereftalat chiqindilarini oziq-ovqat sanoati uchun qayta ishlab chiqarish texnologiyasini joriy etmoqchi.

Texnologiya BHET (bis-gidroksiyetiltereftalat) monomerini chuqur tozalashdan so'ng glikoliz orqali PETning doimiy depolimerizatsiyasini o'z ichiga oladi. Uning asosiy afzalligi shundaki, u mavjud yoki yangi zavodlarda osongina qayta polimerlash mumkin bo'lган sof BHET monomerini qayta tiklash uchun barcha qo'shimchalar va rang beruvchi moddalarni ajrata oladi.

Sof BHET monomeridan ishlab chiqarilgan qayta ishlangan PET allaqachon oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash va kosmetika sohalaridagi bir qancha yirik kompaniyalarida ma'qullangan bo'lib, uning bozorda keng joriy etish mumkinligini anglatadi.

**“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**